

**O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
Respublika Ta’lim markazi**

**Kompyuter.
Kompyuterning asosiy qurilmalari
va ularning vazifalari**

5-sinf

Tuzuvchi:

**B.Boltayev – RTM, Ta’lim jarayoniga AKT ni joriy etish
bo’lim boshlig‘i**

Toshkent

Dars maqsadi:

O‘quvchilarga shaxsiy kompyuterning tashkil etilishi, protsessor, asosiy plata, disk yurituvchi, ma’lumotlarni saqlash vositalari, vinchester, kompyuterning ba’zi qo‘srimcha qurilmalari, kompyuterni ishga tushirish haqida ma’lumot berish.

Asosiy tushunchalar:

Monitor, sistema bloki, klaviatura, tashqi xotira, disket, kompakt disk, vinchester, CD-ROM, disk yuritgich, sichqoncha, printer, karnay, qulqochin, kontekst-menyu.

Mavzuni boshlashga hozirlik:

Informatika darsligi. Informatikadan 5–sinf uchun electron dars ishlanma va mavzuga mos elektron qo’llanmalar kompyuterga yuklab ishchi holatga keltiriladi. Mavzuga oid taqdimot slayd tayyorланади.

Darsning tashkiliy qismi :

- a) o‘quvchilarning darsga tayyorligi;
- b) sind xonasini va kompyuter va uning qurilmalarini darsga tayyorligi;
- c) davomatni aniqlash;

Mavzuni yoritish:

Dars **ma’ruza va amaliyotning** uyg‘unligi shaklida olib boriladi.

O‘quvchilarga zamonaviy shaxsiy kompyuterning tashkil etilishi haqida ma’lumot 5-sinf darsliklarida o‘quvchi yoshiga mos holda bayon qilingan. Monitor, sistema bloki, klaviatura amalda ko‘rsatib beriladi. *Ularni o‘quvchilar o‘z kompyuterlarida amalda ko‘rishiadi.*

Kompyuterni ma va u qanday tuzilishga ega?

Kompyuter (ingl. *Computer* – «hisoblovchi») – dastur bilan boshqariladigan axborotlarni qayta ishlovchi elektron qurilmaga aytildi. Hisoblashlar yordamida kompyuter ma’lumotni ma’lum bir algoritm asosida qayta ishlaydi. Kompyuter yordamida hisoblashlarni amalga oshirish – ketma-ket amallarni bajarish demakdir.

Kompyuter bajaradigan ishiga qarab bir necha turlarga bo‘linadi: shaxsiy kompyuterlar (ShK), serverlar, superkompyuterlar. Biz shaxsiy kompyuterlarni o‘rganib chiqamiz.

Shaxsiy kompyuterlar ham o‘z navbatida bir nechta variantda bo‘lishi mumkin:

Statsionar kompyuterlar (ingl. *Desktop Computer*)

— ofis va uy sharoitlarida ishlash uchun mo‘ljallangan.



Noutbuk (ingl. *notebook* – bloknot, bloknotli ShK) – portativ shaxsiy kompyuter. Uning korpusida ShKni tashkil etuvchi elementlar joylashgan: klaviatura, display, boshqarish qurilmasi (sensorlipanel, tachpad). Noutbuklar ixchamligi bilan ajralib turadi. Elektr ta’minati batareyalardan amalga oshirilishi mumkin (1-10 soatgacha ishlashi mumkin), shuning uchun bunday kompyuterlardan safarlarda, elektrmanbalari yo‘q joylarda foydalanish qulay.



Netbuk (ingl. *netbook*) – kichik o‘lchamdagи noutbuk. Uning ish unumdorligi nisbatan past, asosan Internet tarmog‘ida va ofis dasturlari bilan ishlash uchun mo‘ljallangan.



Server tarmoq orqali unga ulangan kompyuterlarga xizmat ko‘rsatuvchi, imkoniyati tarmoqdagi boshqa kompyuterlardan ancha baland bo‘lgan kompyuter.

Server sifatida amaliy dastur ham bo‘lishi mumkin.



Kompyuterning tuzilishi.

Kompyuterning tuzilishi "kompyuter arxitekturasi" deb ataladi.

Kompyuter quyidagi qismlardan iborat bo‘ladi: asosiy qurilmalar, qo‘shimcha qurilmalar, kiritish va chiqarish qurilmalari.

1. Monitor
2. Asosiy plata
3. Protsessor
4. ATA port
5. Tezkor xotira
6. Qo‘shimcha platalar
7. Manba bloki
8. CD/DVD o‘quvchi qurilma
9. Qattiq disk
10. Klaviatura
11. "Sichqoncha"

Bu yerda:


Asosiy qurilmalar: 2, 3, 4, 5, 6, 9

Qo‘shimcha qurilmalar: 11

Kiritish qurilmalari: 10

Chiqarish qurilmalari: 1

Qo‘shimcha qurilmalar sifatida Skaner, Karnay, Qulqchin, Modem va b. bo‘lishi mumkin.



Rasm www.wikipedia.org saytidan olingan

Qo‘shimcha qurilmalar

Lazerli printer

Printer – ma’lumotlarni bosmaga chiqarish qurilmasi. Printerlarning uch xili mavjud: **bosma** (matritsa-o‘ymaqlip), **purkovchi**, **lazerli**.




<p>Purkovchi printer - qog'ozga chiqariladigan ma'lumotlarni, maxsus idishdagi suyuqlikni juda kichik naycha teshigidan bosimli purkash yo'li bilan hosil qiladi.</p>	
<p>Quloqchin (rus. <i>Naushnik</i>)</p> <p>Kino, klip, qo'shiq, musiqalardagi tovushlarni quloqchin (naushnik)lar orqali eshitish mumkin</p>	
<p>Karnay (rus. <i>Kolonka</i>)</p> <p>Kino, klip, qo'shiq, musiqalardagi tovushlarni karnay (kolonka) orqali eshitish mumkin</p>	
<p>Modem</p> <p>Modem – kompyuter signallarini telefon signallariga aylantiruvchi va aksincha telefon signallarini kompyuter signallariga aylantirishni ta'minlovchi maxsus qurilma. Bu qurilma yordamida computer Internet tarmog'iga ulanishi mumkin.</p>	
<p>Skaner</p> <p>Skaner – fotosurat, grafik va matn shaklidagi axborotlarni kompyuterga kiritish uchun ishlatiladi</p>	

Kompyuter qanday ishga tushiriladi?

Odatda kompyuterni ishga tushirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- ✓ Kompyuter elektr manbayiga ulanadi;
- ✓ Kompyuterning sistema blokidagi “Power”
- ① smli tugmachasi bosiladi;
- ✓ Monitor alohida ishga tushiriladigan bo‘lsa, uning rasmli tugmachasi bosiladi.

Yodingizda bo‘lsin, kompyuterlarni ishga tushirayotganingizda elektr tokidan nihoyatda ehtiyyot bo‘ling.



Power tugmasi

Kompyuterni ishga tushirish ketma-ketligi doskaga yozib, o‘quvchilarga bu ketma-ketlikni Xavfsizlik texnikasi qoidalari asosida amalda bajarish tavsiya qilinadi.

Mavzuni mustahkamlash va yakunlash:

Bubosqichda o‘quvchilarga mavzudag iasosiy tushunchalar va qurilmalar bilan bog‘liq darslikdagi savollar bilan murojaat qilinadi. Savollarga bahsmunozara shaklida javob berishni tashkil etish katta samara beradi.


Uyga vazifa:

Bunda o‘quvchilarga darslikdagi yoki quyidagi shakldagi vazifa topshirish mumkin.

1. Kompyuter bir necha qurilmasi rasmini chizing va asosiy vazifalarini yozing.
2. Sistema blokidagi qismlarni yozma yoriting.
- 3*. Boshqotirmalar, topishmoqlar yechish yoki tuzish.

Masalan:

Topishmoq: Ranglarim nurli turli,
Kamalakdek jilosi,
Ko‘p tikilsang ko‘ziningni,
Yetib qolar intihosi. (*Monitor*)



Abekword:

Kompyutering asosiy bo‘laklaridan
biri ...dir. (*Monitor*)